

## ZAMONAVIY O'QITUVCHI QIYOFASIDA PEDOGOGIK QOBILIYATLARNING O'RNI

*Andijon davlat pedagogika instituti*  
*O'ktambekova Ruqiyabonu*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy o'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning o'rni va uning ahamiyati yoritilgan. Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchida pedagogik qobiliyatni shakllantirish va uni rivojlantirish imkoniyatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik qobiliyat, tasxislash, bashoratlash, loyilashashtirish, konstruktivlik, kommunikativlik, gnostik qobiliyat, kuzatuvchanlik, tarbiyalash qobiliyati, empatiya

*"...O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kirolmog'i lozim".*

*Abu Ali ibn Sino*

O'qituvchilik – inson jamiyati tarixi boshlangandan paytdan davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq deb hisoblanib, e'zozlab kelingan kasbdir.

Pedagogik psixologiyada qobiliyatga quyidagicha ta'rif beriladi:

Qobiliyatlar – shaxsga ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish, bilimlarni tez va osonlik bilan o'zlashtirishga yordam beruvchi individual-psixologik xususiyat.[1]

Pedagogik qobiliyatlar o'z funksiyasiga ko'ra umumiy va maxsus turlarga bo'linadi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo'lganda o'qituvchi o'z pedagogik kasbiy faoliyatini mukammal egallab, mohirona olib borish bilan birga, boshqa turli faoliyatlar bilan ham muvaffiqiyatli shug'ullanadi. E.G'oziyev va M. Davletshin "Pedagogik qobiliyatlar shunchaki bilim emas, balki bilimni o'quvchi ongiga mohirona yetkazib berish transformatori" deb tushuntirishadi.[2]

N.V.Kuzmina o'qituvchi faoliyatidagi ba'zi qobiliyatlarga muvofiq keluvchi asosiy tarkibiy qismlarga konstruktivlik (pedagogik maqsadga mos keluvchi materialni tanlay olish va uni namoyon etish vositalarida aks etadi), tashkillashtirish, kommunikativlik (tarbiyalanuvchilar bilan muloqot o'rnata olish qobiliyati) va gnostik (bilimlardan foydalanish va qo'llay olish qobiliyati) qobiliyatlarini kiritadi. Bundan tashqari, N.V.Kuzmina pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, talabchanlikni ham kiritadi.

Hozirgi kunda zamonaviy pedogogning ma'lum bir qobiliyat sifatida darsga tayyorgarlik ko'rishida uchta bosqich muhim ahamiyatga ega:

- tashxislash;
- bashoratlash;
- loyihalashtirish(rejalashtirish).

-tashxislashda o'qituvchi didaktik jarayonda kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtiradi,ining natijalarini belgilaydi.O'qituvchining tashxislashida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish qobiliyatlari,ularning faoliyati va xulqlari,motivlari,talab va layoqatlari,qiziqish va qobiliyatlari,bilimdonlik darajasi,bilim,ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

-bashoratlash o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsning samarali tashkil etilishning turli variantlarini tanlab olib baholash va qabul qilingan mezonlarga muvofiq darsni tashkil etishning eng ma'qil variantini tanlab olish va qo'llashdir.

-loyihalashtirish (rejalashtirish) o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib,u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi.Loyiha(boshqarish dasturi) qisqa va aniq,erkin tuzilgan,o'qituvchi o'zi uchun boshqarish jarayoni(kimdan va qachon so'rash,qayerda mavzuni kiritish,mashg'ulot keyingi bosqichga qanday o'tish)ni belgilab olishga imkoniyat beruvchi faoliyatdir. [3]

Maxsus pedogogik qobiliyatlar ichida bolalarni tarbiyalash qobiliyati o'ziga xos sinfni tashkil etadi.Ular ichida asosiylari deb quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1.Boshqa odamning ichki kechinmalarini to'g'ri baholay olish,hamdardlik,hamfikrlik(empatiya)qobiliyati.

2.Bolalar uchun qilayotgan ishlarida namuna va o'rnak bo'la olish qobiliyati.

3.Bolalarda oliyanoblik hissini,yaxshi inson bo'lishga xohish va intilishni,yuqori axloqiy maqsadlarga erishishni shakllantirish qobiliyati.

4.Tarbiyalanuvchi bolaning o'ziga xos xususiyatlariga tarbiya ta'sirini moslashtira olish qobiliyati.

5.Odamda ishonch hissini uyg'ota olish,uni tinchlantira olish,o'z-o'zini tinchlantirishni qo'llab-quvvatlash qobiliyati.

6.Har bir bola bilan muomala qilishning kerakli usulini topa olish,o'zaro tushunishga erisha olish qobiliyati.

7.Tarbiyalanuvchi tomonidan o'ziga nisbatan hurmat uyg'ota olish qobiliyati.[4]

Pedogogning tarbiyachi sifatidagi qobiliyati hamuning o'qituvchilik qobiliyatiga muvofiqdir.Ammo shu ta'kidlash lizimki,yaxshi o'qituvchi bo'lishdan yaxshi tarbiyachi bo'lish birmuncha murakkabroqdir.

O'qituvchida pedagogik qobiliyat yillar davomida turli xil yo'llar bilan shakllanadi. Asosan, kuzatuvchanlik qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilikka tayyorgarlik ko'rayotgan har bir shaxs atrofidagi bo'layotgan hodisalarni kuzatish orqali maxsus malakaga ega bo'ladi.

Bugungi jadal rivojlanayotgan davrda o'qituvchi faoliyatida kompyuter va axborot texnologiyalarining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning o'sishiga xizmat qiladi. Modomiki shunday ekan, o'qituvchi hamo'z kasb va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalari oqimi asosida oshirib borishi mumkin.

Har qanday kasb sirlarini mukammal egallash uchun qobiliyat kerak. Pedagogik qobiliyat sog'lom o'qituvchidagina shakllanadi. Biroq, u yuqori, o'rtacha yoki past darajada no'lishi mumkin. Ushbu turli darajadagi qobiliyatlarda mujassamlashgan hissiyotlar va xususiyatlar muhim rol o'ynaydi. Pedagogik qobiliyatlarga ega o'qituvchi jamiyatning kerakli shaxsidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1."Rivojlanish va pedagogik psixologiya"E.G'oziyev/M.Davletshin.
- 2"Pedagogik mahorat"A'zam Xoliqov
- 3."O'qituvchining pedagogik mahorati"(X.Nizomov)
- 4."Turkiy guliston yoxud axloq"(Abdulla Avloniy)